



DARIY TILIDAGI SALOMLASHUV NUTQIY ETIKET BIRLIGINING  
LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Hasanova Nigina Asror qizi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada nutqiy aktda dariy tilidagi salomlashuv birliklari lingvopragmatik tadqiq qilinadi. Tadqiqot usullari tadqiqot nazariy uslubi tahliliy: har bir obyektни imkon qadar batafsil yoritib, ularni nazariy tahlil qilish; salomlashu va xayrlashuv birliklari aks etgan birliklarni jonli va yozma suhbatlardan va OAVda kuzatish kabilardan iborat.

**Kalit soʻz va iboralar:** lingvopragmatika, xayrlashuv, nutqiy akt, nutqiy etiket,

**Аннотация .** В статье проводятся прагматические исследования единиц приветствия в языке дарий в речевом акте. Методы исследования Теоретический метод исследования аналитический: теоретический анализ каждого объекта с максимальной детализацией его освещения; живые и записанные беседы и наблюдение в СМИ за отражаемыми единицами приветствия.

**Ключевые слова и фразы:** лингвопрагматика, приветствия, речевой акт, речевой этикет,

**Annotation.** The article examines the pragmatic study of the lingvo of greeting units in the Dariy language in the colloquial act. Research methods research theoretical style analytical: theoretical analysis of each object, highlighting them in as much detail as possible; consisting of live and written conversations of units with greeting and farewell units and observation in the media, among others.

**Keywords and phrases:** linguopragmatics, greeting, Speech Act, speech label,

**Kirish.** Bugungi kunda Tilshunoslikdagi yangi va dolzarb masalalaridan hisoblanadigan tilshunoslikning bosqichlaridan biri Linguopragmatika yoki

Pragmalingvistika bosqichi tilga kommunikativ yondashuv bilan ajralib turadi. Pragmalingvistika butun dunyo tillarining bir boʻlagi hisoblanib, u ikki va undan ortiq shaxslarning muloqotida namoyon boʻladi. Maqolada dariy tilidagi salomlashuv uv nutqiy etiket birliklari lingvopragmatik tadqiq qilinadi.

Salomalshish va hayirlashish aktlari bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan nutqiy etiket birliklarini tashkil qiladi. Uchrashuv vaqtida salomlashish orqali suhbatdoshimiz bilan aʼloqa oʻrnatamiz. Bu esa xayrixohlikni nutq shaklida aktuallashtirishga olib keladi, unda har bir tomon nafaqat muloqotga kirishish, balki suhbatdoshga nisbatan hurmatni ham ifodalaydi.<sup>7</sup> Bu jarayon turli xalqlarda turlicha boʻladi. Masalan Evropa yoki uzoq Sharq, shu jumladan Yaponiya "Sudah mandi?"—"Bugun choʻmildingizmi?" savol boʻlsa Indoneziyadagi salomlashish turi boʻlib suhbatdoshni unga

<sup>7</sup> Чаушев Ахмат Сапарбиевич КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В РАЗЛИЧНЫХ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ (на материале карачаево-балкарского, русского и английского языков) 10 02 20 — сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание АВТОРЕФЕРАТ Волгоград — 2008 с.11

yaqin olganligiga ishora qiladi. Vetnam xalqi bir biri bilan salomlashayotganda "Qandaysiz?" uchun "Bugun guruch iste'mol qildingizmi?" birligini ishlatadi.<sup>8</sup> Bularning barchasi tarjima jihatidan turlicha bo'lib ligvopragmatik tadqiqotga muhtojlik sezdirsada maqsad suhbatdoshga nisbatan hurmatni, ehtirom va g'amxo'rlikni ifoda etish. Dariy tilida salomlashish quyidagi iboralardan foydalaniladi:

Salom / سلام (salom) Bu so'z tom ma'noda "tinchlik" degan ma'noni anglatadi va Dari tilida salomlashishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Assalomu alaykum – السلام عليكم (As-salaamu alaikum) Bu so'zma-so'z "Sizga tinchlik", ya'ni sizga tinchlik tilayman degan ma'noni anglatadi. Bu aslida arabcha ibora, ammo afg'on xalqining aksariyati musulmon bo'lganligi sababli dariy tiliga qabul qilingan. Bularga javob tarzida quyidagi iboralardan foydalaniladi:

• و عليكم السلام (Wa'alaikum as-salaam) Vaalaykum assalom. So'zma so'z tarjimasi "Sizga ham tinchlik" ya'ni sizga ham tinchlik tilayman degan ma'noni anglatadi va bu yuqorida keltirilgan سلام salaam yoki اسلام عليكم as-salaamu alaikum uchun ham javob bo'ladi.<sup>9</sup>

Kuzatuvlarimiz natijasida shu ma'lum bo'ldiki Afg'onlar boshqa millatlarga nisbatan uzoq salomlashishadi. Muloqot jarayonida جور هستيد *gor hastid*, خانهچيريت است *xona xayriyat ast*, چتور است *chetur ast*, kabi bir vaqtning o'zida bir qancha iboralardan foydalanishadi. Salomlashish uchun ishlatilinishi mumkun bo'lgan yan bir birlik bu: خوش آمديد (Khosh aamadid. Ushbu ibora mehmon kutishda ishlatiladi.

Emotsional bo'yoqdorlikga ega quyidagi dariycha jumla salomlashuv (salom yo'llash) uchun ishlatiladi من خواهش می کنم که به خانم محترم و فرزندان تان سالم و تشکرات صمیمانه مرا برسانید <sup>10</sup>*Man xush mekonam ke ba xonom moxtaram va farzandoneton salom-o tashakkurot-e samimiyate maro berasoid* Rafiqangizga va farzandlaringizga mening samimiy minnatdorchiligim va salomimni yetqazsangiz hursand bo'lar edim. O'zbek tilidagi bu ibora "Oilangizga salom ayting", birligiga to'g'ri kelsada, emotsional ma'noni to'laligicha ochib bera olmaydi.

Ko'pgina tillardagidek dariy tilida ham salomlashish suhbatdoshga salomlik va yaxshilik tilash ma'nolarini anglatadi.

<sup>8</sup> Shakhnoza Bobojonova Yoldosh Kizi LINGUO-CULTURAL CHARACTERISTICS OF SPEECH ETIQUETTE OCCURRING IN DISCOURSE CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES November 05 61 p

<sup>9</sup> How To Say Hello In Dari + Other Useful Dari Greetings - Lingalot

<sup>10</sup> XOLIDA ALIMOVA, YOSIF XO'JAQULOV Dariy tili darslik Toshkent 2021 75b